



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-99-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentabrdagi
“Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy
etish loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar
to'g'risida”gi PQ-4840-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'tgan davrda tumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 sentabrdagi “Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4840-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, hisobotga ko'ra aholi va ulgurji iste'molchilar bilan ishslash xizmati bo'yicha tumanda 24 ta mahalla tabiiy gaz bilan taminlanib, jami 7482 ta tabiiy gaz iste'molchilar mavjud, shundan 7287 tasi aholi va 195 tasi ulgurji iste'molchilarni tashkil etadi.

2022-yilning 1-yarmida 19149,4 mln. so'mlik tabiiy gaz mahsuloti yetkazib berilgan. Shundan aholi iste'molchilariga 3766,7 mln. so'mlik, ulgurji iste'molchilariga 15382,7 mln. so'mni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentabrdagi PQ-4840 farmoniga asosan “Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish” bo'yicha tumandagi mavjud 6668 ta aholi 187 ta ulgurji tabiiy gaz iste'molchilari to'liq yangi zamonaviy elektron gaz hisoblash asbobi bilan taminlandi va onlayn tizimiga ulandi. Onlayn tizimda iste'molchilarning qancha tabiiy gaz iste'mol qilayotganligini masofadan turib kuzatish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo'yicha

qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5048 sonli Qarori ijrosini ta'minlash, tumanda aholi va ijtimoiy soha obyektlarida suyultirilgan gaz ta'minotini yanada yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, tumandagi 53 ta mahallaning 7287 ta xonadoni tabiy gaz tarmog'iga ulangan, qolgan 39984 ta iste'molchiga hamda maktabgacha ta'lim mussasalariga 9 ta maxsus avtotransport vositalari yordamida suyultirilgan gaz yetkazib beriladi. 2022-yilning 1-yarmida 2783,4 tonna suyultirilgan gaz yetkazilib, gaz bilan ta'minlash oraliq vaqtি 40-45 kunni tashkil etmoqda. Ehtiyoji bor 102 ta xonodon gaz balon bilan taminlandi.

Xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jalik va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida "Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyihasini amalga oshirish borasida tumanda olib borilayotgan ishlar haqida "Hududgazta'minot" AJ tuman bo'limi rahbari A.Tursunovning hisobotini ko'rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. "Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyihasini amalga oshirish borasida tumanda olib borilayotgan ishlar haqida "Hududgazta'minot" AJ tuman bo'limi rahbari A.Tursunovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinnbosari (A.Chulliyev), "Hududgazta'minot" AJ tuman bo'limi rahbari (A.Tursunov)ga:

- tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq, joriy yil 1-avgustga qadar zamonaviy elektron gaz hisoblash asboblari o'rnatilishini yakunlash;

- tumanda "Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyihasini amalga oshirish doirasida hisoblagichlarni birinchi navbatda aholining tabiiy gaz iste'moli va qarzdorlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarga o'rnatilishi nazoratini ta'minlash;

- bir hafta muddatda hisoblagichlarni o'rnatish va tizimga ulash

ishlariga mahalla raislari va jamoatchilik vakillarini jalg qilish hamda tizimli ravishda aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlari olib borishni tashkil qilish;

- hisoblagichlar o‘rnatilgan xonadonlarda ishlatilgan tabiiy gaz uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish va yuzaga kelgan qarzdorliklarni undirish ishlarini tizimli tashkil etish;

- hududda tizim imkoniyatlaridan samarali foydalanish, o‘rnatilgan hisoblagichlarga servis xizmatlari ko‘rsatish ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Tasdiqlangan reja-grafikka amal qilmaganligi uchun “Hududgazta’minot” AJ tuman bo‘limi rahbari A.Tursunov qat’iy ogohlantirilsin. Mazkur reja-grafikka asosan joriy yil 1-avgustga qadar zamonaviy elektron gaz hisoblash asboblari o‘rnatilishi bo‘yicha ishlarni yakunlash choralarini ko‘rsin. Aks holda rahbarning ishda qolish yoki qolmaslik masalasi Kengash sessiyasi kun tartibiga kiritilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi tahririyati (B.Elmurodova) “Hududgazta’minot” AJ tuman bo‘limi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jalik va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Yuldashev) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X